

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”

(OTM rektori)

2025 yil “26” 08

**FASHION ILLUSTRASIYA
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi	200 000	San‘at va gumanitar fanlar
Ta‘lim sohasi:	210 000	San‘at
Ta‘lim yo‘nalishi:	60210400	Dizayn (kostyum dizayni, milliy kostyum dizayni)

Toshkent -2025

Fan/modul kodi FI23404		Semestr 4	Kreditlar 4
Fan/modul turi Tanlov		Ta'lim tili O'zbek/rus	
Haftadagi dars soatlari 4			
1	Fannig nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)
	Fashion illustatsiya	48	72
2	<p>I. Fanning mazmuni:</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – fashion eskiz yaratishning barcha bosqichlarini o'rganish, yaratilgan tasvirning maksimal ifodaliligiga erishish texnikasini o'rganish, moda tasvirini yaratishda o'z uslubini rivojlantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – dizaynning ijodiy tasvirlarni vizual tarzda baholanishi mumkin bo'lgan aniq tasvirga o'tkazish ko'nikmalarini shakllantirish, zamonaviy avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarida ishlashni o'rganish. Fashion illyustratsiyaning zamonaviy yo'nalishlari, rivojlanish tendensiyalarini; xorijiy Modalar Uyi va ijod qilayotgan taniqli modelyerlarning ijodiy faoliyatini; asosiy moda tendensiyalarini; loyihaviy grafika asoslarini; libos funksiyasini va badiiy obrazini; kostyum yaratishdagi uslublarni va uslubiy yechimlarni; eskiz chizish texnikasini tanlash tamoyillarini; tasvirlashning turli texnik usul va vositalari hamda ularning imkoniyatlarini; libos dizaynini yaratish jarayonida turli ijod qilish usullaridan foydalanish; dizaynga ijodiy yondashish; turli ijodiy manbalardan foydalanish; kiyim modellari eskizlari ustida ishlash jarayonida tasvirlashning turli texnik usullarini o'rgatadi.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari):</p> <p>II.I. Fan tarkibida ma'ruza mashg'ulotlari rejalashtirilmagan</p> <p>Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar <i>Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi</i></p> <ol style="list-style-type: none"> Inson tanasining proporsiyasini o'rganish: skelet va bo'g'inlar, "Sakkiz boshli" nisbati, proporsiya. Tana holati: tik turgan, bir oyoqqa tayanib turgan, tanani ¼ holati. Ornament, print va bezaklarni chizish. Kiyimni chizish. Fashion illyustratsiyadagi badiiy obraz; fashion illyustratsiya rivojlanishi tarixi; libos modasidagi badiiy obrazni o'rganish. 		

9. Turli (Klassika, romantika, sport, etno, avangard) uslublar asosida liboslarning eskizlari ustida ishlashning o'ziga xosligini o'rganish.
6. Libosdagi illyuziya xossalarini, "op-art" yo'nalishini o'rganish. Optik illyuziyalar qo'llangan libos kompozitsiyalarni tuzish.
7. Illyuziya hosil qilishning badiiy usul, vositalar va qonuniyatlarini o'rganish. Libos kompozitsiyasida illyuziya hususiyatlarini o'rganish.
8. 1-2-3-ko'rinishidagi notipaviy gavda tuzilishlari uchun illyuziya xossalari qo'llangan libos eskizlari ustida ishlash.
9. Zamonaviy trikotaj assortimentini o'rganish. Moda sanoatida trikotaj liboslarning o'rni, ahamiyati, dolzarbligini o'rganish. Trikotaj liboslar dizaynini yaratish.
10. Vazifasi turlicha bo'lgan trikotaj kiyimlari, kompleklari, ansambllari uchun eskizlar chizish.
11. Material rapportining libos kompozitsiyasiga ta'sirini o'rganish. Turli assortimentdagi buyumlar uchun materiallarning rapportli kompozitsiyalarini ishlab chiqish.
12. Mavzu tanlash va unga xos rang gammasini asoslash. Rapportlar uchun ilk namunalarni yaratish.
13. Material sirtidagi guli, fakturasi va boshqacha turdagi badiiy bezaklarni turli rapportlarda aks ettirishning o'ziga xosliklarini o'rganish. Rapportlarni turli usullar bilan interpretatsiyalash, uslublashtirish. Rapport masshtabini o'zgartirib turli variantlardagi libos eskizlari ustida ishlash.
14. Fashion illyustratsiya kompyuter texnologiyalarining ahamiyatini o'rganish. Kompyuterda fashion eskiz chizish, fashion dizayn yaratishning o'ziga xosligi, usul va vositalarini o'rganish.
15. Fashion illyustratsiya va gazlamalar dizayni uchun kompyuter dasturlari, ta'minotini o'rganish.
16. Zamonaviy usullar yordamida mato va liboslarning fashion illyustratsiyalarini yaratish.
17. "Procreate" (android qurilmalari uchun Sketchbook dasturi) dasturining konfiguratsiyasi. Ishchi holati.
18. "Procreate" (android qurilmalari uchun Sketchbook dasturi) dasturida qatlamlar (слой) bilan ishlash.
19. Procreate" (android qurilmalari uchun Sketchbook dasturi) dasturida rang tanlash va liboslar dizaynini rangda ishlash.
20. "Procreate" (android qurilmalari uchun Sketchbook dasturi) dasturida rang tanlash va liboslar dizaynini rangda ishlash.
21. "Procreate" (android qurilmalari uchun Sketchbook dasturi) dasturida faktura bilan tanlash. "Procreate" dasturi yordamida liboslarda turli xil fakturalarni qo'llash.

22. “Procreate” (android qurilmalari uchun Sketchbook dasturi) dasturida kapsulali liboslar to’plamini ishlab chiqish.
23. Fashion Illustrator uchun targ’ibot va sotish top 10-kanallari.
24. Mijoz bilan ishlashning qoidalari va o’siga xos xususiyatlari.

Amaliy mashg’ulotlarni tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko’rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar amaliy mashg’ulot mavzulari bo’yicha olgan bilim va ko’nikmalarini amaliy masalalar, keyslar orqali yanada boyitadilar.

III. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Fashion illustrasiya zamonaviy uslublari.
2. Yangi paydo bo’lgan libos uslublari mos eskizlar chizish.
3. Libos uslublari mos kompozitsiyalar tashkil etishni o’rganish.
4. Oq-qora va rangli grafikada ornamental kompozitsiyalar yaratish.
5. Op-art uslubidagi libos kompozitsiyalarini tuzish.
6. To’lachadan kelgan ayollar qomatining kamchiliklarini yashirib ko’rsatuvchi libos eskizlarini chizish.
7. Bo’yi past ayollar qomatining kamchiliklarini yashirib ko’rsatuvchi libos eskizlarini chizish.
8. Haddan tashqari ozg’in ayollar qomatining kamchiliklarini yashirib ko’rsatuvchi libos eskizlarini chizish.
9. Bo’yni kalta ayollar qomatining kamchiliklarini yashirib ko’rsatuvchi libos eskizlarini chizish.
10. Yelkasi tor ayollar qomatining kamchiliklarini yashirib ko’rsatuvchi libos eskizlarini chizish.
11. Fashion portretni chizish.
12. Gipyur, to’r materiallari qo’llanilgan libos eskizlarini chizish.
13. Sanoat ishlab chiqarish sharoitlarida yaratilayotgan libos kompozitsiyasiga rapportning ta’sirini ko’rib chiqish va tahlil etish.
14. Kompyuter dasturlarida gazlamalar dizaynini yaratish usullarini o’rganish.
15. Kompyuter dasturlari yordamida rapportli kompozitsiyalarning masshtabi, ritmi, foni, rangini o’zgartirish.
16. Turli vazifalarga mo’ljallangan matolar dizaynini kompyuter dasturlari yordamida yaratish.
17. Kompyuter dasturlari yordamida rapportli matodan libos eskizlarini chizish.
18. Kompyuter dasturlari yordamida rapport qo’llanilgan matolar kombinatsiyasidan tashkil topgan libos eskizlarini chizish.
19. Kompyuter dasturlari yordamida material sirtidagi fakturasi turlicha bo’lgan libos eskizlarini chizish.

	<p>20. Material sirtidagi guli turlicha bo'lgan libos eskizlarini kompyuter dasturlari yordamida chizish.</p> <p>21. Badiiy bezagi turli rapportlarda aks etgan libos eskizlarini kompyuter dasturlari yordamida chizish.</p> <p>22. Fashion aksessuarlarni chizish (sumka va oyoq kiyim va b).</p> <p>23. Fashion illustrasiyada o'z uslubi topish.</p> <p>24. Portfolio yaratish.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan eskizlar tayorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. Mustaqil ta'lim talabalarga avvaldan berib qo'yiladigan mavzular asosida OTM va korxonada tashkil etiladi. Talabalarining o'zlashtirishlari amaliy mashg'ulotlar davomida nazorat qilinadi.</p> <p>Mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi: amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik; darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish; tarqatma materiallar bo'yicha mavzularni o'zlashtirish; maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash; o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish; faol va muammoli o'qitish metodlaridan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari; masofaviy ta'lim.</p>
3	<p>IV. Ta'lim natijalari / kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba bilishi kerak:</p> <p>Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - fashion illyustratsiyaga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbaalarini o'rganish; - moda va dizayn, tikuvchilik sanoati sohasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish; - mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish; - ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish; - yangi innovatsion g'oyaviy dizayn loyihalarini tadbiq qilish va ularni amalga oshirish; - dizayn mahsulotlarini ishlab chiqarish sifatini nazorat qilish; - amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositalaridan foydalanish; - zamonaviy texnologik jarayonlarni qo'llash; - ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish yo'nalishlari <p><i>haqida tasavvurga ega bo'lishi:</i></p>

– iste'molchi ishlab chiqarish talablarini hisobga olgan holda turli materiallardan fashion illyustratsiya sohasida mavjud texnologiyalar va texnik vositalaridan samarali foydalanish, ularning ko'rsatkichlarini baholash va oshirish choralarini ko'rish;

– dizayn sohasida texnologik jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

– zamonaviy axborot texnologiyalari tizimidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

– axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishni;

– muammolarni hal qilishga ijodiy yondoshishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

– moda estetikasining asosiy tamoyillari va asosiy moda tendentsiyalarini bilish;

– eskiz (xayoliy tasvirni asosiy grafik eskizga, eskizga o'tkazish qobiliyati);

– plastik anatomiyaning badiiy asoslari, shuningdek, bosh va yuzning konstruksiyasi (makiyaj, soch turmagi);

– o'z ijodiy g'oyalari kelgusida amalga oshirish uchun materiallar, matolar va tekstura kombinatsiyalarini oldindan tanlash qobiliyati;

– stilizatsiya - yaratilgan modelning estetik va uslubiy xususiyatlari va afzalliklarini ta'kidlash qobiliyati;

– badiiy kompetensiyalar (illyustratsiya kompozitsiyalari, kollajlar, qidiruv kitoblari va boshqalarni yaratish);

– dizaynerlik masalalarini yechishga qaratilgan kontseptual kreativ yondashuvga asoslangan loyiha g'oyasini ishlab chiqish jarayonida o'z takliflarini asoslash;

– kasbiy sohasidan kelib chiqib, turli ashyolardan dizayn obyektlarini yaratish, dizayn-loyihalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish uchun munosib g'oyalar, materiallar, vositalar va jarayonlarni tanlash qobiliyati;

– rasm chizish, chiziqli-konstruktiv qurish ko'nikmalariga ega bo'lish va muayyan eskizni bajarish texnikasini tanlash tamoyillarini tushunish qobiliyati;

– dizayn loyihalari bo'yicha hujjatlarini yaratish va amalga oshirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari va grafik muharrirlardan foydalanish qobiliyati;

– korxonaning maqsadi va strategiyasiga muvofiq, uning xususiyatlari va mijozlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda sifat siyosatini yaratish hamda takomillashtirish bo'yicha takliflar va chora-tadbirlar ishlab chiqishi;

– loyihalarni taqdimot qilish hamda maqsadli auditoriya, mijozlar va ish beruvchilar uchun professionallik darajasini namoyish qiladigan shaxsiy professional portfolioni shakllantirish qobiliyati;

– ekologik toza va innovatsion materiallardan foydalanish, chiqindilarni minimallashtirish va ishlatilgan moda mahsulotlarini barqaror moda talablariga

	<p>muvofig qayta ishlash <i>ko'nikmalarig ega bo'lishi kerak.</i></p>
4	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - amaliy mashg'ulotlar; - interfaol keys-stadilar; - kichik guruhlarda ishlash; - java script; - taqdimotlar qilish; - jamoa bo'lib ishlash; - video materiyallar tayyorlash; - individual ishlash; - virtual reallik; - blokcheyn texnologiyasi; - mobil platforma; - bulutli (cloud) texnologiyasi; - courselab; - autoplay.
5	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarini to'liq o'zlashtirish, fan yuzasidan mustaqil fikray olish, mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, nazorat turlari bo'yicha berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish.</p>
6	<p>Foydalanilgan adabiyotlar</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Kamilova X. X., Isaxojayeva N. A, Fuzailova K.R. "Kostyum kreativ grafikasi". O'quv qo'llanma. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. - 240 b. 2. "Creative fashion drawing" textbook, A complete cuile to design and illustration styles, Noel Champan and Judith Cheek, 2013. 3. Bina Ablng. Fashion Sketchbook. Firechild Book, New York, 2012 y. 4. Макс Уличней, Эвелин Стокарт. "Procreate. Учимся создавать шедевры на Ipad". Москва. Бомбора, 2020. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent sh., 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son Farmoni. 2. Хасанбоева Г.К. "Костюм дизайни". дарслик. Тошкент. ТТЕСИ босмахонаси, 2013. -250 бет. 3. Атаханова Ф.З. "Либос композициясида иллюзия хусусиятларини ўрганиш". услубий қўлланма. Тошкент. "Санъат", 2010 й. -43 б. 4. "Il Figurino Di Moda", Fernando Burgo. ISTITUTO di MODA BURGO, 2005. 5. "Figure Drawing for Fashion Design", Elisabetta 'Kuky' Drudi, Tiziana Paci. The Pepin Press BV, 2005.

	<p>6. Беляева-Экземплярская. “Моделирование одежды по законам зрительного восприятия”. М.: Академия моды, 1996 .-114 с.</p> <p>7. Современная энциклопедия Аванта+. Мода и стил. М.: Аванта+, 2002. – 480 с.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari:</p> <p>1. Indian institute of technology Delhi. Hauz Khas, New Delhi 110 016, India. http://www.iitd.ac.in</p> <p>2. Ege University information package*</p> <p>3. https://ebp.ege.edu.tr/DereceProgramlari/Detay/1/45/2640/932001?lang=en-US</p> <p>4. www.liveinternet.ru</p> <p>5. www.book.style.ru</p> <p>6. www.ispring.suite.ru*</p> <p>7. http://www.liveinternet.ru/users/ggulsiay/post213500916</p> <p>8. http://modanews.ru/books</p> <p>9. https://www.elle.ru > moda > fashion-blog > 5-sekretov-feshn-illv us tratsi</p> <p>10 www.pinterest.ru > pin</p> <p>11. www.wmj.ru/moda</p> <p>12. https://freelancehunt.com</p> <p>13. artlab.club > fashion</p> <p>14. https://sirin308.wixsite.com/onlinefashion</p> <p>15. http://artkit.com.ua/courses/school-of-design/fashion-illustration</p>
7	<p>Fanning o'quv dasturi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institut Kengashining 2025 yil “<u>27</u>” <u>08</u> dagi “<u>1</u>”-sonli bayonnomasi bilan maqullangan.</p>
8	<p>Fan moduli uchun ma'sullar: Z.U.Zufarova- TTYSI “Moda va dizayn” kafedrası PhD, assistenti. Sh.M.Sindarova - TTYSI, «Moda va dizayn» kafedrası PhD katta o'qituvchisi;</p>
9	<p>Taqrizchilar: U.A.Vaxidova – «Moda va dizayn» kafedrası mudiri, PhD dotsent. D.Tomilin – “TDV” MChJ rahbari.</p>

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etilgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan.

№	OTM nomi	QS	THE	Havolalar	Sillabusdagi mavzu nomi	Chet el universiteti Sillabuslaridagi mavzular
1	The University of Edinburgh	27	22	https://www.fitnvc.edu/academics/academic-divisions/art-and-design/fashion-design/index.php	7- mavzu rejasida ishlatilgan mavzular	Studying the artistic methods, tools, and laws of creating illusions
2	The University of Edinburgh	27	22	https://study.ed.ac.uk/programmes/postgraduate-taught/37-design-and-digital-media#details	14 - mavzu rejasida ishlatilgan mavzular	Exploring the importance of computer technology in fashion illustration
3	Royal college of Art (Лондоне, Великобритания)	1	-	https://www.rca.ac.uk/study/programme-finder/fashion-ma/	22- mavzu rejasida ishlatilgan mavzular	Modern technology in the development of fashion illustration. Study of the artistic image in clothing fashion.

Handwritten signature